

KO‘KRAK, QORIN, ORQA MUSHAKLARI VA ULARNI QOPLAYDIGAN FASSIYALAR. DIAFRAGMA ANATOMIK XUSUSIYATLARI

N.A. Ismoilova

Toshpulatov Jamshid, Shodmonov Humoyun, Bo‘tayeva Lobar

(oliy malakali hamshiralik yo‘nalishi talabalari)

ZARMED UNIVERSITETI, SAMARQAND KAMPUSI

Mavzuning dolzarbligi: Ko‘krak, qorin va orqa mushaklari hamda ularni qoplaydigan fassiyalar organizmning tayanch-harakat tizimida muhim o‘rin tutadi. Ushbu mushaklar nafaqat gavdaning tik holatini saqlash, harakatni ta‘minlash, balki ichki a‘zolari himoya qilish va ularning normal faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda ham bevosita ishtirok etadi. Ayniqsa, diafragma nafas olish jarayonining asosiy mushagi sifatida organizm hayotiy faoliyatida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda noto‘g‘ri o‘tirish va yurish odatlari, kamharakat turmush tarzi hamda ortiqcha jismoniy zo‘riqish natijasida umurtqa pog‘onasi kasalliklari, qorin devori churralari, nafas tizimi buzilishlari keng tarqalmoqda. Shu sababli ko‘krak, qorin va orqa mushaklarining anatomik tuzilishi, ularning fassiyalari va diafragmaning anatomik xususiyatlarini chuqur o‘rganish tibbiyot amaliyotida, ayniqsa jarrohlik, travmatologiya, sport tibbiyoti va reabilitatsiya sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Ko‘krak mushaklari, qorin mushaklari, orqa mushaklari, fassiya, yuzaki fassiya, chuqur fassiya, ko‘krak devori, qorin devori, orqa sohasi, diafragma, nafas olish mexanizmi, tayanch-harakat tizimi, anatomik tuzilish, ichki a‘zolar himoyasi, mushak funksiyasi.

Tadqiqotning maqsadi: ko‘krak, qorin va orqa mushaklari hamda ularni qoplaydigan fassiyalarning anatomik tuzilishi, joylashuvi va funksional xususiyatlarini

ilmiy jihatdan o'rganish, shuningdek diafragmaning anatomik tuzilishi va uning nafas olish jarayonidagi rolini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot uchun materiallar: Tadqiqotni amalga oshirishda quyidagi aniq va ishonchli manbalardan foydalanildi: Odam anatomiyasi bo'yicha asosiy fundamental darsliklar (umumiy anatomiya va topografik anatomiya bo'yicha nashrlar). Anatomik atlaslar (mushaklar, fassiyalar va diafragmaning rangli tasvirlari, kesimlari va sxemalari). Klinik anatomiya, operativ jarrohlik va topografik anatomiya bo'yicha o'quv qo'llanmalar. Ilmiy maqolalar va dissertatsiya ishlari (ko'krak devori, qorin devori, orqa mushaklari va diafragma patologiyalariga oid). Morfologiya va gistologiya bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar (fassiyalarning mikrotuzilishi va funksional xususiyatlarini o'rganish uchun). Zamonaviy elektron ma'lumot bazalari va ilmiy platformalar. Anatomik preparatlar, mulyajlar va o'quv laboratoriya materiallari (agar amaliy kuzatuv o'tkazilgan bo'lsa).

Muskullar, mushaklar — [odam](#) va [hayvonlar](#) gavdasi a'zolari; [nerv impulslari](#) ta'sirida qisqarish xususiyatiga ega to'qima (muskul to'qimasi)dan tashkil topgan. Silliq, ko'ndalangtarg'il va [yurak](#) muskullari birga organizmning [muskul sistemasini](#) tashkil etadi. Harakatlanishda asosiy rol o'ynaydi. Ko'ndalangtarg'il va silliq muskullarga bo'linadi. Silliq muskullardan ichki a'zolar, [qon](#) va [limfa](#) tomirlari devorining muskul pardalari, shuningdek, [teri](#) muskullari hosil bo'ladi. Silliq muskullar kishi ixtiyorida tashqari qisqaradi, shuning uchun ular g'ayriixtiyoriy muskullar deyiladi. Silliq muskul nuqul mezenximadan vujudga keladi. Muskul tolasi uzunasiga ketgan muskul xujayrasidan iborat bo'lib, yupqa elastik pardasi — sarkolemmasi, sitoplazmasi — sarkoplazmasi, ko'p yadrolari va organoidlari bor. Muskul tolasining qisqaruvchi tuzilmasi — uzun ipga o'xshaydigan miofibrillar tolaning bir uchidan ikkinchi uchigacha davomladi.

Ko'ndalangtarg'il muskullarga skelet muskullari va [yurak muskuli](#) (miokard) kiradi. Ko'ndalangtarg'il muskullar to'qimasi kishining ixtiyoriga bo'ysunadi. har

qaysi muskul yumaloq yoki yassi pay vositasida bir suyakdan boshlanib, ikkinchisiga yopishadi. Muskul bo'g'im yaqinida bo'lsa, albatta, shu bo'g'imdan o'tib, uning harakatlanishini ta'minlaydi. Muskullar shakliga ko'ra uzun, qisqa, yumaloq, yalpoq bo'lib, joylashishiga qarab yuza, chuqur, oraliq guruhlariga bo'linadi. Bajaradigan vazifasiga ko'ra qisuvchi, kengaytiruvchi, ko'taruvchi, tushiruvchi, yozuvchi, bo'quvchi, chaynovchi va hokazo. Muskullarga ajratiladi. Uzun yoki duksimon muskulning yo'g'onroq qismi qorni, oxirgi pay qismlari boshi va dumi deb ataladi. Ba'zi muskullarning bir emas, balki 2—3 va hatto 4 ta boshi bor (masalan yelkaning ikki boshli, sonning to'rt boshli muskuli). Muskullarning qo'shimcha apparatiga fassiyalar, fibrozsuyak kanallari, sinovi-al qin va xaltalar kiradi.

Muskullarda kon tomirlar ko'p, ular kon bilan mo'l ta'minlangan, limfa tomirlari yaxshi rivojlangan. Har bir muskulda harakatlantiruvchi va sezuvchi nerv tolalari bor, ular yordamida markaziy nerv sistemasi bilan aloqa qiladi. Bir harakatni bajaradigan muskullar sinergistlar, qarama-qarshi harakatlarni bajaradiganlari antagonistlar deyiladi. Skelet muskullar [topografik](#) jihatdan tana, bosh, bo'yin, ko'l va oyoq muskullariga ajratiladi.

Xulosa: Ko'krak, qorin va orqa mushaklari hamda ularni qoplaydigan fassiyalar inson organizmining tayanch-harakat tizimida muhim o'rin egallaydi. Ular gavdaning tik holatini saqlash, harakatlarni amalga oshirish, ichki a'zolari himoya qilish va ularning normal faoliyatini ta'minlashda faol ishtirok etadi. Ushbu mushaklarning qatlam-qatlam joylashuvi va o'zaro funksional bog'liqligi organizmning mexanik barqarorligini ta'minlaydi. Fassiyalar esa mushaklarni o'zaro ajratib turadi, ularni bir butun tizimga birlashtiradi hamda qon tomir va nervlarning o'tishiga sharoit yaratadi. Ular nafaqat himoya, balki tayanch va trofik funksiyalarni ham bajaradi.

Diafragma ko'krak va qorin bo'shlig'ini ajratib turuvchi asosiy nafas mushagi bo'lib, nafas olish jarayonida yetakchi rol o'ynaydi. Uning anatomik tuzilishi va funksional xususiyatlarini chuqur o'rganish nafas tizimi, jarrohlik amaliyoti hamda

klirik diagnostika uchun katta ahamiyatga ega. Shu bois, ko'krak, qorin va orqa mushaklari, ularning fassiyalari hamda diafragmaning anatomik xususiyatlarini kompleks o'rganish tibbiyot ta'limi va amaliyotida muhim nazariy va klinik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сапин М.Р. **Анатомия человека.** – Москва: Медицина, 2010. – 512 с.
2. Синельников Р.Д. **Атлас анатомии человека.** – Москва: Медицина, 2009. – Т. 1–4.
3. Netter F.H. **Atlas of Human Anatomy.** – Philadelphia: Elsevier, 2019. – 608 p.
4. Gray H. **Gray's Anatomy: The Anatomical Basis of Clinical Practice.** – London: Elsevier, 2020. – 1632 p.
5. Snell R.S. **Clinical Anatomy by Regions.** – Philadelphia: Wolters Kluwer, 2019. – 832 p.
6. Moore K.L., Dalley A.F., Agur A.M.R. **Clinically Oriented Anatomy.** – Philadelphia: Wolters Kluwer, 2018. – 1216 p.
7. Борийев Т.Б. **Топографическая анатомия и основы оперативной хирургии.** – Ташкент: Ибн Сина, 2016. – 384 с.
8. Ахмедов А.Г. **Анатомия человека (лекционный материал).** – Ташкент, 2018. – 256 с.